

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA MILLIY RUH VA DRAMATIZM

Nigora San'atjonova

2-bosqich Estrada aktyorligi talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19591302>

Annotatsiya. Maqolada O'zbek xalq shoiri Muhammad Yusuf she'riyatining soddaligi hamda drammatizmi haqida ma'lumotlar yoritiladi.

Kalit so'zlar: shoir, drammatizm, she'r, Muhammad Yusuf, ijod, kitob.

Аннотация. В статье освещаются простота и драматизм в поэзии народного поэта Узбекистана Мухаммада Юсуфа.

Ключевые слова: поэт, драматизм, стихотворение, Мухаммад Юсуф, творчество, книга.

Abstract. The article highlights the simplicity and dramatism in the poetry of Muhammad Yusuf, people's poet of Uzbekistan.

Keywords: poet, dramatism, poem, Muhammad Yusuf, creative work, book.

Hozirgi davr o'zbek milliy adabiyotining ko'zga ko'ringan iste'dodli shoirlaridan biri Muhammad Yusufdir. U 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat tumani, Qovunchi qishlog'ida oddiy oilada tavallud topdi. Shoir o'rta maktabni tugatgandan so'ng Respublika Rus tili va adabiyoti institutini (1978) tamomladi.

Shoir 1978-1980 yillarda Kitobsevarlar Respublika jamiyatida, 1980-1986 yillarda „Toshkent oqshomi“ gazetasida, 1986-1992 yillarda G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida, 1992-1995 yillarda „O'zbekiston ovozi“ gazetasida, O'zbekiston Axborot agentligida ishladi, 1995-1996 yillarda Davlat va jamiyat qurilish akademiyasida o'qidi. 1997 yildan boshlab O'zbekiston Yozuvchilar Uyushmasi raisi o'rinbosari lavozimida ishladi.

U o'nga yaqin she'riy to'plamlarning, o'nlab mashhur qo'shiqlarning muallifi sifatida keng kitobxonlar qalbiga kirib ulgurdi. Uning dastlabki she'rlari birinchi bor „O'zbekiston adabiyoti va san'ati“ ro'znomasida 1976 yilda chop etilgan. Shundan so'ng „Tanish teraklar“ (1985), „Bulbulga bir gapim bor“ (1987), „Iltijo“ (1988), „Uyqudagi qiz“ (1989), „Halima enam allalari“ (1989), „Ishq kemasi“ (1990), „Ko'nglimda bir yor“ (1990), „Bevafo ko'p ekan“ (1991), „Erka kiyi“ (1992) kabi jozibali she'riy to'plamlari nashr etildi. 1989 yilda esa „Uyqudagi qiz“ nomli she'riy to'plami uchun unga Respublika „Yoshlar“ mukofoti berildi.

Shoir ijodini tahlil qiladigan bo'lsak, Muhammad Yusuf haqida gap ketganda albatta uning samimiyligiga to'xtalamiz. U rostgo'y shoir, halol va pokiza qalb egasi edi. Boshqa ijodkor shoirlardan Muhammad Yusuf she'riyatining farqi avvalo, oddiyliigi, ravonligi, soddaligi milliy ruhi bilan xalq og'zaki ijodiga hamohang ko'rinadi. Shuning uchun ham uning she'riyati ma'naviyatga to'la shoirning vatan, muhabbat, bevafo yor, tarix, taqdirlar haqida kuylangan ijodida hamisha haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi.

Milliy ruh tushunchasi o'zi nima? „Muhammad Yusuf“ ijodi bevosita vatan, ona yurt, milliy qadriyatlar, urf-odatlar va xalq tiliga sadoqat, o'zbekona dunyoqarashning samimiy ifodasidir. Muhammad Yusufning milliy ruhni aks ettirishdagi yana bir muhim xususiyati - xalq og'izaki ijodiga, milliy an'analarga tayanishidir. U o'zining lirikasida ko'p hollarda xalq qo'shiqlari ohanglaridan, an'anaviy obrazlardan foydalanadi.

Shoir tilidagi soddalik va jo'nlik milliy ruhning ajralmas qismidir. U o'z she'rlarini sodda xalq tushunadigan, qalbga yaqin tilda yozar edi. Shoirni nafaqat vatanni madh etuvchi, balki "muhabbat kuychisi" deb ham atashimiz mumkin. Chunki shoir sevgi-iztiroblarga dard-hasratlarga limmolim bo'lgan tuyg'ularini o'z satrlarida bayon etgan. Shoir she'rlarini o'qigan kitobxon uning ruhiyatiga albatta kirib ketadi.

Masalan: shoirning «Mehr qolur» she'rini eslang-a:

**O'tar qancha yillar to'zoni,
Yulduzlar - ko'zyoshi samoni.
O'tar inson yaxshi-yomoni,
Mehr qolur, muhabbat qolur.**

Shoir she'riyatida ham shunday. Mehringizda, qalbingizda mangu qo'shiq bo'lib qoladi. Ona diyor va istiqloq kuychisi ... Muhammad Yusuf noyob iste'dot egasi, odamlarni mehribon, sofdil, mard va kamtarin inson edi...

Muhammad Yusuf garchi she'riyatida sodda so'zlardan foydalangan bo'lsada, uning mazmun mohiyatini juda ham boy, chuqur ma'noga ega tarzda yoritib bergan: Shu o'rinda aytish mumkinki, keling endi shoirning "Lolaqizg'aldoq" she'riga nazar solamiz.

**Mendan nima qolar,
Ikki misra she'r
Ikki sandiq kitob
Bir uyum tuproq
Odamlar ortimdan nima desa
Men seni o'ylayman
O'zimdanda ko'proq,
Lola, lolajonim, Lolaqizg'aldoq!**

degan edi. Aslidachi, shoirdan bizga "bir uyum tuproq", emas balki butun bir me'ros ma'naviy xazina qoldirdi. Xalqning yuragiga huzun solib, bu dunyo bilan vidolashgan Muhammad Yusuf vafotidan keyin ham go'yo tirik tarixga aylandi. Doim millati bilan, vatani bilan birga- avlodlarining qalbida mangu yashashda davom etadi.

Muhammad Yusuf she'riyatining ikkinchi muhim va boshqa ijodkorlardan ajralib turuvchi omili bu - drammatizm. Bu yerda drammatizm deganda lirik qahramonning ruhiy holatidagi ziddiyatlar, iztirob, kechinma, ba'zan fojiviy yoki qayg'uli kayfiyat tushuniladi. Shoir inson qalbining eng nozik torlarini, muhabbatdagi sadoqat va ayriliq azobini, hayot va o'lim, umid va umidsizlik kabi falsafiy masalalarni badiiy jihatdan teran ifodalaydi. Yuqorida aytib o'tganimizdagi drammatizm bu- keskinlik, ziddiyat his-tuyg'ularning tarangligi.

1937-1938-yillardagi "Katta qirg'in" O'zbekiston tarixining eng fojiali sahifasidir. Ushbu qatag'on siyosati minglab fuqarolarning qirib tashlanishi, turli azob-uqubatlarga giriftor etilishi, mamlakatda qo'rqub ta'qib va tazyiq muhitining qaror topishiga sabab bo'lgan davlat miqyosidagi jinoyat edi. Muhammad Yusufning "Qora quyosh" dostoni (1988-yil) ayni qatag'onning daxshatli oqibatlarini ifodalagan bo'lib, biz unda dramaturgiyani ichki kechinmalarini badiiy yondashgan holda his qilamiz. Muhammad Yusufning nafaqat doston balki ko'plab she'rlarida bir qator drammatizm mavjud....

Soʻzning badiiy imkoniyatlaridan foydalanish, musiqiy ravonlik, tuygʻular tiniqligi, samimiylig va mayinlik, ruhiyat manzaralarini loʻnda va yakdil ifodalay bilish Muhammad Yusuf sheʻriy uslubining yetakchi xususiyatlaridandir.

Shoirning yana bir ijodiga toʻxtalsak. Uning ona haqida koʻplab sheʻrlari mavjud..

Masalan: “Onamga” sheʻrini olaylik undagi

“Men mashhur shoirmas-

Mashhur beshafqat

misralari orqali shoir oʻziga nisbatan qattiq tanqidiy munosabat bildiradi. Shoirning onasi oldida qarzdorligi oʻz kechinmalar orqali tasvirlangan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Muhammad Yusuf sheʻriyatidagi dramatism uning asarlariga chuqur falsafiy mazmun bagʻishlaydi. Uning oddiy, tiniq va ohangdor sheʻriy shakl orqasida murakkab ruhiy kechinmalar ijtimoiy-tarixiy ziddiyatlar va umuminsoniy axloqiy muammolarni mahorat bilan ifodalanadi. Aynan shu dramatism tufayli Muhammad Yusuf sheʻrlari nafaqat sodda, balki oʻquvchini chuqur

Oʻylashga, murakkab hayotni his qilishga savollariga javob izlashga undaydigan muhim adabiyot namunalaridan hisoblanadi.

Shoir sheʻrlari orqali odamlarning unitayozgan qadriyatlarimizni, millatimizni asrab avaylashga chorlaydi. Uning sheʻrlaridagi oddiy obrazlari orqali, ayni paytda munis va qadrdon, tub mohiyati yani ular timsolida shu ona vatan, muqaddas tuproq, shu vatanning azizligi, moʻtabarligi aks ettirilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Xalq shoiri Muhammad Yusuf 2001-yil 30-iyulda dunyodan koʻz yumdi. Garchi u vafot etgan boʻlsada, lekin u xalqi va avlodlari yuragida mangu yashaydi va doim yodimizda qoladi...

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va sanʼat, madaniyatni rivojlantirish masalalariga bagʻishlangan asarlar . Toshkent, Oʻzbekiston
2. Normatov. U . Muhammad yusuf ijodi: lirik qahramon va uslub. // Oʻzbek tili va adabiyoti jurnali, 2021, 3-son .
3. Mirqosimova.M Oʻquvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish va takomillashtirish asoslari. -T; Fan,2006. - 112 b
4. Quronov. D. Adabiyot nazariyasi asoslari. -
5. Toshkent: Akademnashr, 2018
6. Karimov.B Mustaqillik davri oʻzbek sheʻriyati:
7. Badiiy izlanishlar.- // Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
8. Muhammad Yusuf; Saylanma . “Sharq”, nashriyoti . 2007.
9. Karimov.N “XX asr adabiyoti tarixi” . - Toshkent , 2004.